

“Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi va darslarni to`g`ri tashkil qilish”

*Qashqadaryo viloyati Koson tumani 66-maktab Boshlang`ich sinf o`qituvchisi
Choriyeva Madina Tuychiyevna*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang`ich ta`limda matematika fani, uning o`rgatilishi, ilk bosqichlarda o`qitish metodikasi shuningdek darslarni to`g`ri tashkil qilish haqida so`z yuritiladi.*

Kalit so`zlar: *ilmiy bilim, ko`nikma, mustaqil ish, umumiy ta`lim, o`quvchi, individual, tushuncha, fikrlash qobiliyati, dars, yig`indi.*

Аннотация: В данной статье рассказывается о предмете математики в начальных классах, ее преподавании, методике первых ступеней, а также правильной организации занятий.

Ключевые слова: научное знание, умения, самостоятельная работа, общеобразовательная, учащийся, личность, понимание, способность мыслить, урок, итог.

Abstract: This article talks about the subject of mathematics in primary education, its teaching, the methodology of the first stages, as well as the correct organization of classes.

Key words: scientific knowledge, skills, independent work, general education, student, individual, understanding, ability to think, lesson, total.

Ta`limning hozirgi sharoitida bolalarning individual hususiyatlarini o`rganish va ularga yakka tartiba yondashishni amalga oshirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish vazifalarini bajarish uchun ota-onalar va bolalarga maktabdan tashqari qo`shimcha vositalarni tanlash bo`yicha keng imkoniyatlar tugulmoqda. Boshlang`ich sinflarda, ayniqsa,

o`qitishning birinchi bosqichida o`qituvchining bevosita boshchiligidagi bajariladigan o`quv ishlaridan keng foydalaniladi, o`qituvchi o`quvchilarining ishlarini kerakli ishga mohirlik bilan yo`naltirib turishi kerak. Ammo hozirgi vaqtida o`qitish samaradorligini oshirishga imkon beruvchi tasirli metod sifatida o`quvchilarining mustaqil ishlariga borgan sari kopiroq etibor berilmoqda. O`quvchilarining mustaqil ishlari hozir o`qitishning hamma bosqichlarida, shu jumladan, yangi bilimlarni berish bosqichida ham kuzatiladi. Bu muhim hodisa hozirgi zamon ta`limining o`quvchilarining umumiyligi rivojlanishlariga yo`naltirilganligini yana bir karra ta`kidlaydi. Hozirgi paytda maktablarda boshlang`ich sinflarda matematika o`qitishning asosiy vazifalaridan biri o`quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bunda ularda matematika bo`yicha bilimlar berish bilan birga ularga o`rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo`lishini ta`minlash, ularni qo'llay olish ko`nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni kelgusida olingan bilimlarni ongli hayotiy faoliyatda muvaffaqiyatli qo'llashlari uchun zarur ko`nikma va malakalarini shakllantirish boshlang`ich matematik ta`limining asosiy vazifalariga aylanishi lozim. Shu nuqtai nazardan o`quv jarayonida matematik masalalar, jumladan hayotiy mazmunli, ularning to`plagan tajribasiga asoslangan masalalarni yechish usullariga va ularni qo'llashga o`rgatish o`ziga xos xususiyatlarga ega, ularni ta`lim mazmuni va o`rganilayotgan tushunchalar mohiyatini olib berishda foydalanish, o`zaro aloqadorlikda va o`quvchilar amaliy faoliyati tajribasi bilan qo'shgan holda o`qitish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Boshlang`ich sinflarda matematika darslar tizimi- O`quvchilar bilan har bir darsda bir necha tushunchalar bilan ish olib boriladi. Har birini shu darsning turli bosqichlarida o`zlashtirishi mumkin. Har bir tushunchani tushunish boshqa bir tushunchani takrorlash, esga olish bilan olib borilsa, bu tushuncha esa keyingi tushunchalarni tushuntirish uchun xizmat qiladi. O`qitish jarayonida har bir o`quv materiali rivojlantirilgan holda olib boriladi, bu o`quv materiali o`zidan keyin

o‘qitiladigan materiallarni tushunish uchun poydevor bo‘ladi. Boshqa tushunchaning o‘zlashtirilish jarayonini qarasak, u bir necha darslarning o‘zaro bog‘liqli o‘qitilishi natijasida hosil bo‘ladi. Shunday qilib matematik tushunchalarini hosil qilish birgina darsning o‘zida hosil qilinmasdan, balki o‘zaro aloqada bo‘lgan bir qancha darslarni o‘tish jarayonida hosil qilinadi. Bunday darslarni birgalikda darslar tizimi deb ataymiz. Shuning uchun o‘qituvchi mavzuning mazmunini ochadigan darslarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirishi kerak. Darslar tizimining tuzilishidagi eng katta talab darsning o‘quv-tarbiyaviy maqsadini e’tiborga olish, o‘qitish tamoyillarining metodik va umumpedagogik tomonlarini hisobga olishdir. Mavzu bo‘yicha yaxshi o‘ylangan darslar tizimining o‘quv vaqtini mavzuchalarga to‘g‘ri taqsimlashga bog‘liq. Unda o‘quvchilarning mustaqilligini hosil qilish, xususiy misollarni qarash, xususiy xulosalar chiqarish, undan umumuy xulosalar chiqarishga olib kelish diqqat markazida turishi lozim. Bu bilimlar darslar tizimida hosil qilinib, mustahkamlangandan keyin misol va masalalar yechishni ta’minlashi kerak. Undan keyin mashqlar yordamida malakalarni qayta ishlashi, shuningdek, hosil qilingan bilimlarni doimo bir tizimga keltirish va umumlashtirishni ham ta’minlash kerak. Dasturning qandaydir mavzusining mazmunini aniqlashda, mavzu materialini dars vaqtlariga taqsimlashda, ya’ni bilimlarni o‘zlashtirishga quyidagi asosiy bosqichlar qaraladi.

1. Yangi materialni o‘qitishga tayyorlash.
2. Yangi o‘quv materialini idrok qilish va yangi bilimlarni hosil qilish.
3. Bilimlarni mustahkamlash va turli xil mashqlar orqali malakalarni hosil qilish.
4. Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish va bir tizimga keltirish.
5. Bilim va malakalarni tekshirish

Umumiyligi ta`lim maktabining eng muhim maqsadi o‘quvchilarga ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanadigan bilimlar berishdir. O‘quvchi vaqt o‘tishi bilan mактабда олган bilimlarining bir qismini unutadi. Lekin ular izsiz yo‘qolmaydi.

Olingen bilimlar, garchi o`quvchilar unutganda ham, aqliy kamolotda ma`lum darajada iz qoldiradi. Ko`pincha bolalar o`zlarining amaliy faoliyatlariga bog`lanmagan maktab materialini eslaridan chiqaradilar. Ba`zan o`rganish jarayonida mashq va mustaqil ishlar kam bajarilishi sababli, materiallar xotirada mustahkam saqlanmaydi. Bulardan tashqari, oldingi mashg`ulotlarda o`zlashtirilgan bilim, ko`nikma va malakalar yanada murakkabroq materialni o`rganish uchun bir pog`ona, tayanch boladi. Ana shu tayanchsiz o`quvchilarning o`sishi va olg`a siljishi mumkin emas. Ilmiy bilimlarni egallash o`quvchilarning xotirasini, mantiqiy tafakkurini, ijodiy faolligi va turli ishlarni bajarishdagi mustaqilligini rivojlantiradi. Lekin olingen bilimlar, hosil qilingan ko`nikma va malakalar keyinchalik, ilmiy bilimlar tizimini o`rganishda tayanch sifatida xizmat qilishi uchun ular puxta o`zlashtirilishi, asosli mustahkamlanishi va o`quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanishi kerak. Bu mustahkamlik prinsipining talabi bo`lib, unga rioya qilinmasa, o`quvchilarning o`zlashtira olmasligi va o`qishdagi qoloqligi kelib chiqadi. Bilimlar, ko`nikma va malakalarning mustahkamligiga butun o`quv jarayoni mobaynida erishiladi. Mustahkamlik prinsipining amalga oshishi, eng avvalo, o`quvchilarning o`quv materialini idrok etishiga bog`liqdir. O`quvchilarga korsatmali, yaqqol, jiddiy mantiqiy izchillikda berilgan bilimlar ularning xotirasida yaxshiroq mustahkamlanadi. Shu tariqa o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarni puxta o`zlashtirishi, izchillik va tizimlilik, nazaryani amaliyot bilan bog`lash, ko`rsatmalilik, o`quvchilarning ongliligini amalga oshirish orqali taminlanadi. Shular bilan birga, o`qitish jarayonida mustahkamlik prinsipining amalga oshishini taminlaydigan maxsus didaktik vositalar ham qo`llanadi. Ularga mazkur darsda bayon qilinganlarni mustahkamlash kiradi. Bu ish o`quvchilar bilan suhbatlar, mashqlarni tashkil etish, ta`limiy masalalarni hal qilish va har xil amaliy topshiriqlarni bajarish orqali o`tkaziladi. O`quvchilar materialni esdan chiqarishining oldini olish, ular unutgan bilimlarni qayta tiklash, o`zlashtirgan bilimlarini tizimlashtirish va chuqurlashtirish uchun takrorlashning har xil turlari amalgalashtirish.

oshiriladi. Har bir mashg`ulotda oldingi dars materialini joriy takrorlash o`tkazilib, u yangi material bilan bog`lanadi. O`quv yili moboynida mavzu yoki bolim boyicha organilgan materialni takrorlash uchun maxsus darslar ajratiladi va uni tizimlashtirib, chuqurlashtirib hamda mustahkamlab boriladi. Ana shu maqsadda o`quv yili oxirida eng muhim masalalarga doir materiallar umumiy yo`sinda takrorlanadi. Agar mazkur predmetni o`rganish keying sinfda ham davom etsa, yangi o`quv yilida unga doir mashg`ulotlar oldingi materiallarni takrorlashdan boshlanadi. Takrorlash passiv amalga oshirilmasligi kerak. Takrorlashda qo`shimcha fakt va misollarni keltirish, o`rganilgan narsa va hodisalarning yangi tomonlarini ko`rib chiqish, ularni chuqurroq tahlil qilish, bilimlarni murakkab ta`limiy va amaliy masalalarni hal qilishda qo`llash kerak. Mana shularning hammasi o`quvchilarning materialga qiziqishini oshiradi, mantiqiy taffakurini, ishdagi faolligi va mustaqilligini rivojlantiradi. O`quvchilarning bilimlarini puxta o`zlashtirishiga ko`nikma va malakalarni mustahkamlash hamda chuqurlashtirishda yordam beradigan mashqlarni bajarish orqali erishiladi. Shu bilan birga, ularning fikri takomillashadi, bilimlari kengayadi va chuqurlashadi. O`quv mashgulotlari davomida o`qituvchi bolalarning xotirasini rivojlantirish ishlarini ham amalga oshirishi kerak. Ana shu maqsadda ularga so`zlarni, tariflarni, har xil qoidalarni yodlash topshiriqlarini berishi lozim. Yodlash quruq va ma`nosini anglab yodlashdan iborat bo'ladi. Ma`nosini anglab yodlash yangi materialni ilgaridan malum materialga, nomlarga mantiqiy bog`lash asosida amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bikboeva.N.U. Yangiboeva E.Y. Ikkinci sinf matematika darsligi. Toshkent. —O`qituvchil 2005 yil.
2. Bikboeva.N.U. Yangiboeva E.Y. Uchinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. —O`qituvchil 2005 yil.
3. Jumaev M.E, Tadjieva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o`qitishmetodikasi. Toshkent. —Fan va texnologiyal 2005 yil.
4. Karimov I.A. "Barkamol avlod O`zbyekiston taraqqiyotining poydevori" Toshkent "Sharq" 1997 yil.
5. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkyent "Manaviyat" 2008 yil.
6. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Toshkyent "Manaviyat" 2008 yil.
7. O`zbyekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonun". Barkamol avlod–O`zbyekiston poydevori – Toshkyent "Sharq" 1997 yil.